

Forish tuman axborot-kutubxona markazi

**"Ayol qadri ulug`-zo`ravonliksiz
kelajak sari"**

Forish-2025

Forish tuman axborot-kutubxona markazi

"Ayol qadri ulug`-zo`ravonliksiz kelajak sari"

*25-noyabr -Xotin-qizlarga nisbatan zo`ravonlikka barham
berish xalqaro kuni munosabati bilan*

Metodik-bibliografik qo`llanma

Forish-2025

78.342

A 49

Axborot-bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi N. Artikova

Ayol qadri ulug`-zo`ravonliksiz kelajak sari: 25-noyabr -Xotin-qizlarga nisbatan zo`ravonlikka barham berish xalqaro kuni munosabati bilan metod.-bibliogr.qo`ll./Forish tuman axborot-kutubxona markazi;Tuzuvchi N.Artikova.- F.: 2005.- b.

Har yili 25-noyabr kuni dunyoning ko`plab mamlakatlarida “Xotin-qizlarga nisbatan zo`ravonlikka barham berish” Xalqaro kuni nishonlanadi. Bu sana butun jamiyatni ogohlikka chorlaydi, ayollar va qizlarga qarshi har qanday zo`ravonlikka qat`iy munosabat bildirish zarurligini eslatadi. Chunki zo`ravonlik — insonning sha`ni, qadri va hayotiga tajovuzdir. Jamiyat taraqqiyoti, farovonligi va barqarorligiga bevosita zarar yetkazuvchi illatdir. Ushbu qo`llanmada Xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o`rni va ahamiyati, ayollarga nisbatan zo`ravonliklar, ayollarning muammolari haqida ba`zi fikrlar keltirilgan.

Ushbu qo`llanmada axborot-kutubxona markazlarida va maktab kutubxonalarida o`tkazilishi mumkin bo`lgan tadbirlar haqida ma`lumotlar berilgan.

Qo`llanmadan kutubxonachilar ushbu mavzuga qiziquvchi shaxslar foydalanishlari mumkin

SO`Z BOSHI

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning har bir a'zosi uchun teng imkoniyat yaratish nafaqat inson huquqlarining asosiy tamoyili, balki iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning strategik omiliga aylanib bormoqda. Gender tenglik – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi roli bir xil bo'lishi kerak, degan ma'noni emas. Asosiy g'oya – har ikki jinsning salohiyati to'liq namoyon bo'lishi uchun teng huquq va sharoitlarni ta'minlashdir. Aynan shunday imkoniyatlar mavjud bo'lgan jamiyatda taraqqiyot barqaror va izchil kechadi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish nozik xilqat egalarining o'zini namoyon etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

GENDER TUSHUNCHASI, GENDER TENDENSIYALARI VA XXI ASRNING GENDER TENGLIGIGA OID MUAMMOLARI

“Gender” tushunchasi “jins” degan ma'noni bildirib bu tushuncha ikki xil talqin qilinadi: – jins ya'ni biologik tushuncha. Gender bu – erkaklar va ayollar uchun ijtimoiy jihatdan qo'llaniladigan ta'rif. Ushbu tushunchada ayol va erkaklarning biologik xususiyatlari nazarda tutilmaydi. Aksincha gender tushunchasi negizida jamiyat, jamoat va shaxsiy hayotda ayollar va erkaklarga tegishli vazifalar, funksiyalarning konsepsiyasi yotadi. Sotsiolog olim E. Giddens ta'rifiga ko'ra, “gender – erkak va ayol o'rtasidagi fizik farqlar emas, balki ayollik va erkaklikning ijtimoiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatidir”. Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, individning biologik jinsga - erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilar birligidir. Erkaklar va ayollar rollaridagi jiddiy bo'lmagan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashqari o'z tabiatiga ko'ra biologik bo'lmagan sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor. Ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, hatti harakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida farqlar mavjud. Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik, tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollarning hatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy xarakteristikalarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma'noda ikki tushuncha-biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Gender (inglizcha gender-jins) jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy konstruksiya (qurilma) sifatida belgilaydi. Genderning ijtimoiy tashkil topishi bo'yicha antropologlar tadqiqotlari ham isbotlaydi. Ular o'zlari o'rgangan jamiyatlarda ota va ona rollari, ijtimoiy ierarxiyada erkaklar va ayollar mavqei qay tarzda belgilanganligini ko'zatgan. An'anaviy ravishda ayollarga xos deb hisoblangan passivlik, mehribonlik,

bolalarga muhabbat va nazokat bir urgʻuda erkak mijoziga xos xususiyatlar deb belgilansa, ayni paytda boshqa urgʻuda ular aksariyat ayollar va erkaklar tomonidan qabul qilinmas edi. Keyingi paytlarda koʻplab tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, anʻanaviy erkaklarga xos va ayollarga xos deb hisoblangan tasavvurlar hatto bir jins rivoji tarixiy davrda oʻzgarishi mumkinligi isbotlangan. Baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, gender tengligi patriarxal tizimdan keyin ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichidir. Jinslarning tengligi, prinsip sifatida, insonni shaxs sifatida namoyon boʻlishiga toʻsqinlik qiluvchi barcha ijtimoiy toʻsiqlarni (ijtimoiy tenglik) oʻrganish va bartaraf etish, shuningdek, avtonom shaxsning afzalliklariga qarab, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollarning shaxsini amalga oshirish uchun teng ijtimoiy imkoniyatlar Gender tushunchasi erkaklar va xotin-qizlar oʻrtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, taʼlim hamda ilm-fan sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihatlarni ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki erkaklarning ham orzu va maqsadlarini, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining taʼminlanishidadir. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 3-moddasiga asosan, gender — xotin-qizlar va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, taʼlim hamda ilm-fan sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihati, ekanligi belgilab berilgan. Mazkur taʼriflarni koʻplab keltirish mumkin, muhimi sodda qilib aytiladigan boʻlsa, bizning nazarimizda gender tengligi bu – ijtimoiy tushuncha boʻlib, jamiyatda ham erkakka ham ayolga yaratilayotgan huquq va imkoniyatlarning tengligi tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki, har ikki jins vakillarining oʻz orzu va maqsadlarini, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining taʼminlanishidadir. Birinchi navbatda, gender bu faqatgina xotin-qizlar bilan bogʻliq tushuncha emasligini hamda bitta jins bilan bogʻliq emasligini anglashimiz lozim. Gender bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar oʻrtasidagi huquqlar tengligi hamda jamiyatda va shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqei va vazifalarini ifodalovchi tushunchadir. Mazkur taʼriflarni koʻplab keltirish mumkin, muhimi sodda qilib aytiladigan boʻlsa, bizning nazarimizda gender tengligi bu – ijtimoiy tushuncha boʻlib, jamiyatda ham erkakka ham ayolga yaratilayotgan huquq va imkoniyatlarning tengligi tushuniladi. Insoniyat

sivilizatsiyasining rivojlanish darajasiga qaramay, zamonaviy jamiyatda asrlar va hatto ming yillar davomida shakllangan gender stereotiplari mavjud. Ular erkak va ayol hatti-harakatlarining "an'anaviy" modellarini nazarda tutadi. Erkaklar va ayollarga oila va ijtimoiy hayotda ma'lum ijtimoiy rollar yuklangan. Ammo bu stereotiplarga XXI asrda o'rin yo'q, shuning uchun ham dunyo miqyosida hayotning barcha sohalarida har ikki jins vakillariga teng huquqlar berish harakati mavjud. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, gender tengligi nima ekanligini hamma ham to'g'ri tushunmaydi. Bu erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqni inkor etish haqida emas. Bu gender stereotiplaridan xalos bo'lish, ayollar va erkaklarga o'zini o'zi anglash uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishdir. Xususan, bu erkak va ayolning oiladagi rolini qat'iy belgilab qo'ymaslik kerakligini anglatadi. Misol uchun, er va xotin ulardan qaysi biri ishlashni davom ettirishi va qaysi biri ota-onalik ta'tiliga chiqishini o'zlari hal qilishadi. Gender tengligiga erishish bugungi xalqaro hamjihat oldida turgan ulkan barqaror rivojlanish maqsadi hisoblanadi. Qolaversa, gender tenglik inson huquqi hisoblanib, bugungi kunda mazkur tenglikka erishish va uni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

MAMLAKATDA GENDER TENGLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta'minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o'z isbotini topgan. Bugungi islohatlar yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarning bir qismi bo'lib, unda gender tengligini ta'minlash sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, aholi o'rtasida gender qadriyatlarini targ'ib qilish, mazkur masalalar bo'yicha tajriba almashish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75 yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", – deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha

amalgaga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida xotin-qizlar masalasiga alohida to'xtalib, gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash siyosatini davom ettirish Yangi O'zbekiston uchun muhim ustuvor yo'nalish ekanini jahon hamjamiyatiga ma'lum qildi. Xususan, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasi ekani, milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligi, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat bo'lishi ta'kidlandi. Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlar olib borilayotgani, jumladan, o'tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etgani, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetgani, ayollar va voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilingani qayd etildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga xizmat qiluvchi bir keyingi olti yilda 40 dan ziyod qonunlar va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Joriy yilning 1-mart sanasida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni hamda joriy yilning 7-martida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni xotin-qizlar bilan ishlash tizimining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi, "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" qabul qilindi. Buning natijasida hozirgi vaqtda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi, soha va tarmoqlardagi ulushi ortib bormoqda. Bugungi kunda tibbiyot sohasida mehnat qilayotganlarning 77 foizini, ta'lim sohasida esa 74 foizni xotin-qizlar tashkil etmoqda. Iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida bu ko'rsatkich 46, boshqaruv sohasida 33, partiyalar safidagi ulushi 47 foizga yetgan. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan, vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bundan tashqari 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish

strategiyasining tasdiqlangan 61 ta maqsadli ko'rsatkichlarining 9 tasi xotin-qizlar siyosiy faolligi bilan bog'liq. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yildi.

GENDER TENGLIK-TARAQQIYOT KAFOLATI

Bugungi globallashtirish davrida jamiyatning har bir a'zosi uchun teng imkoniyat yaratish nafaqat inson huquqlarining asosiy tamoyili, balki iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning strategik omiliga aylanib bormoqda.

Bu boradagi muammolarga qarshi kurashish maqsadida 1999 yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 25-noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni sifatida e'lon qilingan. Mazkur sana munosabati bilan qator davlatlarda zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha tadbir va aksiyalar tashkil etib kelinadi.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida mamlakatimizda ham keng ko'lamli ishlar tizimli ravishda tashkil etib kelinmoqda. Xususan, 2019- yilda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2021-yilda qabul qilingan «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori hamda «Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining qarori ushbu yo'nalishdagi tadbirlarda muhim huquqiy asos bo'lib kelayotir.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy va moddiy ko'mak ko'rsatish, shu holatdan chiqishi uchun kasb-hunar o'rgatish, mehnatga jalb qilish maqsadida barcha hududda Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo'yicha inspektorlari lavozimi joriy etildi. Zero, xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o'z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim masalalardandir.

Ayolga qo'l ko'tarish, kuch ishlatish aslida kuchsizlarning ishi. Ammo buni anglamagan ayrim kimsalar ojiza qatlam vakillariga zo'ravonligini ko'rsatishga urinishadi. Bu kabi holatlar nafaqat xotin-qizlarning ruhiyatiga,

balki tazyiq va zo‘ravonlik holatlari mavjud bo‘lgan oilada ulg‘ayayotgan farzandlarning ruhiyatiga ham, tarbiyasiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi shubhasiz. Bunday oilada o‘tib-ulg‘ayayotgan bolalar o‘ziga ishonchsiz, qat‘iyatsiz bo‘lib qolishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shunday ekan, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik, tahdid va tajovuz holatlarini bartaraf etish, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga muntazam e‘tibor qaratish lozim. Ayoli baxtli jamiyat esa tinch va farovon bo‘ladi.

TARAQQIYOTNING ISHONCHLI POYDEVORI

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, gender tenglikka erishgan davlatlarda:

iqtisodiy o‘sish sur‘atlari yuqori bo‘ladi;

qizlar uchun ta‘lim imkoniyatlarining kengayishi malakali kadrlar sonini oshiradi;

oilaviy tinchlik va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi;

sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta‘lim kabi yo‘nalishlarda sifatli xizmatlar rivojlanadi.

Chunki ayollar jamiyatning yarmidan ko‘pini tashkil etadi. Ularning bilim, tajriba va mehnat salohiyati iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismidir. Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi birgina oila byudjetini emas, balki mamlakat iqtisodiyotini ham kuchaytiradi.

O‘zbekistonda gender tenglik bo‘yicha islohotlar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan:

Gender tenglikni ta‘minlash to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi;

Ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha maxsus davlat qo‘mitalari tashkil etildi;

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga kreditlar, grantlar va imtiyozlar ajratilmoqda;

Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rilmoqda;

Qizlarning oliy ta‘limga qabul kvotalari kengaytirildi, IT va texnik yo‘nalishlarda o‘qishga jalb etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida ayollarning ulushi sezilarli oshdi. Qonunchilik palatalari, mahalliy kengashlar, turli davlat agentliklarida ayollar faol ishtirok etmoqda.

GLOSSARIY

Gender – insonlarning ma'lum bir guruhi bilan bog'liq bo'lgan muayyan xususiyatlar va rollarning ijtimoiy-madaniy ifodasi, ularning fiziologik mansubligi va jinsiy o'z-o'zini anglashi orqali namoyon bo'ladi. U jamiyatda jinslar uchun normalar va madaniy kutishlar o'rtasidagi ijtimoiy jihatdan aniqlangan farqlarni ifodalaydi. Mazkur tushuncha jins o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda, shuningdek, ayollar, erkaklar, o'g'il bolalar, qizlar va turli guruhlar o'rtasidagi farqlarni muhokama qilishda qo'llaniladi. Masalan, yoshi, millati, ijtimoiy tabaqasi, jinsi kabi xususiyatlar.

Gender tahlil – tegishli ma'lumotlarni to'plash hamda sharhlash jarayonida erkaklar va ayollarning roli, mas'uliyatini oltita soha kesimida tahlil qilish, shu jumladan: amaliyot va ishtirok etish; resurslardan foydalanish imkoniyati; bilim va e'tiqod; qonunlar, siyosat va tartibga soluvchi, boshqaruvchi hokimiyat organlari.

Gender xabardorlik (gender tushunchasi haqida xabardorlik) yoki uni tushunish ko'nikmasi insonning gender farqlari, me'yorlari va munosabatlarini tushunishi, shuningdek, ularning rivojlanish natijalari, dasturlarini, siyosatini amalga oshirish va baholash uchun ahamiyatini tushunishdir. Gender xabardorlik gender me'yorlar va farqlarni tahlil qilish yoki baholashga asoslanadi, gender tengligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Gender muvozanati – odatda inson resurslariga nisbatan qo'llanilib, ayollar va erkaklarning barcha sohalarda teng ishtirok etishini aks ettiradi.

Gender diskriminatsiya – ayollar va erkaklar o'rtasidagi ko'pincha ko'zda tutilmagan va yashirin farq, erkaklik va ayollik haqidagi stereotiplar natijasida bir jinsning boshqasiga nisbatan ierarxik pozitsiyada bo'lishi holati. Bunga misol qilib erkaklar ayollarning faoliyati natijalari oqilona taqdim etilganda ham bir jinsning tajriba va nuqtai nazariga e'tibor qaratish holatni keltirish mumkin.

Gender aspektini inobatga olmaslik holati – ayollar va erkaklar o'rtasidagi tabiiy farqlar muhim emas degan noto'g'ri taxminga asoslanadi.

Gender teng huquqlilik – ayol va erkaklarning inson huquqlaridan, ijtimoiy muhim tovarlar, imkoniyatlar va resurslardan teng foydalanishini ifodalovchi tushuncha.

Gender tengligi – jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan adolatli munosabat qaror topishi holati. Gender tenglikni ta'minlash uchun jamiyatda ayollar va erkaklarning o'z vazifalari va faoliyatlarini teng shartlarda bajarishiga to'sqinlik qiladigan tarixiy, ijtimoiy kamchiliklarni bartaraf etuvchi chora tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Gender tengsizlik – ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqlar, ayniqsa ijtimoiy, siyosiy, intellektual, madaniy va iqtisodiy yutuqlar yoki munosabatlarda o'z aksini topadi.

Gender integratsiyasi – baholash strategiyasi bo'lib, loyihalashda va amalga oshirishda foydalaniladigan gender me'yorlarini ta'minlash va jinsga asoslangan tengsizlikni kompensatsiya qilish amaliyotini baholashni nazarda tutadi.

Gender muammosini dolzarblashtirish – gender tengligi muammosi tashkilot siyosati, strategiyasi, dasturlari, loyihalari, ma'muriy funksiyalari, shuningdek, tashkilotning institutsional masalasini nazarda tutadi va qamrab oladi. madaniyatida dolzarblashtirish

Gender normalari – jamiyat tomonidan erkaklar va ayollar uchun xos bo'lgan ma'lum xatti-harakatlar yoki munosabatlarni anglatuvchi qat'iy qoidalar, qarashlar yig'indisi. Gender normalari jamiyat madaniyati va turmush taraziga qarab farqlanadi. Gender normalari jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida vaqt o'tishi bilan o'zgarish holatini namoyon qiladi.

Gender konsepsiyasi va gender yondashuv – har qanday ijtimoiy hodisa, siyosat yoki jarayonni ko'rib chiqishda gender farqlarini hisobga olgan holda yondashish.

Gender rollari – insonning qaysi jinsga tegishli ekanligiga qarab jamiyatda belgilanadigan rollari yoki xatti-harakatlari bo'lib, ular ko'pincha madaniy normalar bilan belgilanadi.

Jins – erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlarni bildiradi. Jinsiy farqlar erkaklar va ayollar fiziologiyasi bilan bog'liq.

Gender tenglik mavzusiga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mavzulari . Ushbu tadbirlarni ta'lim muassasalari, tashkilotlar yoki jamoat markazlarida o'tkazish mumkin.

1. “Gender tenglik — jamiyat taraqqiyoti garovi” mavzusida ma'rifiy uchrashuv

- Mutaxassislar (psixolog, huquqshunos, sotsiolog) ishtirokida.
- Gender tushunchasi, huquqiy asoslar, teng imkoniyatlar haqida suhbat.

2. Rolli o‘yinlar va treninglar

- “Stereotiplarni buzamiz” treningi
- “Hayotiy vaziyatlarda tenglik” amaliy mashg‘ulotlar
Bu orqali ishtirokchilar qadriyatlar va stereotiplarni tahlil qilishadi.

3. Kitobxonlik soati yoki debat

- Gender mavzusidagi kitoblar (masalan, adabiyotlarda ayol obrazi) tahlili.
- “Ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni — tenglikmi yoki an’ana?” kabi munozaralar.

4. Huquqiy bilimlar haftaligi

- O‘zbekiston qonunchiligidagi gender tenglik bilan bog‘liq normativ hujjatlar tanishtiruvlari.
- Ayollar va erkaklar huquqlari bo‘yicha viktorina.

5. Ijodiy ko‘rik-tanlovlar

- “Tenglik — mening tasavvurimda” rasmlar tanlovi
- Insho yoki videoroliklar tanlovi
- Sahna ko‘rinishlari (oiladagi tenglik, mehnatdagi teng imkoniyatlar haqida).

6. Psixologik seminar

- Oilada sog‘lom muhit yaratish
- Gender rollarini to‘g‘ri idrok qilish
- O‘zaro hurmat va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish.

7. “Ilhom manbalari” uchrashuvi

- Turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan ayol va erkaklar bilan suhbatlar.
- Ularning tajribasidan yoshlarga motivatsiya berish.

8. Film namoyishi va muhokama

- Gender tenglik mavzusi yoritilgan filmlar ko‘rsatiladi.
- Ko‘rilgan film asosida tahlil va savol-javob.

9. “Tenglik bo‘yicha tashabbuslar kuni”

- Ishtirokchilar kichik guruhlarda gender tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyalar ishlab chiqadilar.

- Eng yaxshi tashabbuslar jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

10. Volontyorlik aksiyasi

- Ayollarni qo‘llash markazlariga tashrif
- “Zo‘ravonliksiz hayot” targ‘iboti
- Gender tenglik bo‘yicha bukletlar tarqatish.

“Gender tenglik — jamiyat taraqqiyoti garovi” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir ssenariysini maktab, kollej va turli tashkilotlarda bemalol qo‘llash mumkin.

TADBIR SSENARIYSI

Mavzu: *Gender tenglik — jamiyat taraqqiyoti garovi*

Turi: Ma’naviy-ma’rifiy tadbir

Davomiyligi: 45–60 daqiqa

Ishtirokchilar: O‘quvchilar / talabalari / jamoa a‘zolari

Shakli: Suhbat, sahna ko‘rinishi, taqdimot, munozara

1. Kirish qismi (5 daqiqa)

BOSHLOVCHI:

Hurmatli mehmonlar, ustozlar, aziz ishtirokchilar!

Barchangizni bugungi ma’naviy-ma’rifiy tadbirimiz — **“Gender tenglik — jamiyat taraqqiyoti garovi”** mavzusidagi tadbirimizda samimiy qutlab qolamiz.

Bugungi tadbirimizning asosiy maqsadi — jamiyatimizda ayol va erkaklarning teng huquqli, teng imkoniyatli va teng mas’uliyatli bo‘lishini targ‘ib qilish, hayotimizda uchraydigan gender stereotiplarini bartaraf etish hamda yoshlar ongida sog‘lom, adolatli qarashlarni shakllantirishdir.

Bugun biz sizlar bilan birga quyidagilarga e’tibor qaratamiz:

- Gender tenglik nima?
- Nega u jamiyat taraqqiyoti uchun muhim?
- Stereotiplar hayotimizga qanday ta’sir qiladi?
- biz — yoshlar gender tenglikni hayotga qanday tatbiq eta olamiz?

Aziz ishtirokchilar!

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari kabi O‘zbekiston ham gender tenglikni ta‘minlash borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayollar va erkaklar uchun teng huquq, teng sharoit va teng imkoniyatlar yaratish — jamiyatning har bir a‘zosiga qulay muhit yaratish demakdir. Chunki jamiyat taraqqiyoti faqat bir jins emas, ikki qanot – ayol va erkaklarning birgalikdagi mehnati bilan yuzaga chiqadi.

Shu bois bugungi uchrashuvimiz siz va biz uchun nafaqat bilim, balki ilhom manbai ham bo‘lishiga ishonamiz.

Marhamat, tadbirimizni birgalikda davom ettiramiz!

2. Videorolik namoyishi (2–3 daqiqa)

(Istalgan gender tenglik haqidagi ijtimoiy rolik qo‘yiladi.)

Boshlovchi:

— Videoda ko‘rdikki, har qanday farovon jamiyatning asosida o‘zaro hurmat va tenglik yotadi. Endi mavzuni yanada chuqurroq ko‘rib chiqamiz.

3. Mutaxassis chiqishi / Taqdimot (10 daqiqa)

Taqdimot mavzusi: “Gender tenglik nima va nega u muhim?”

Asosiy nuqtalar:

- Gender va biologik jins farqi
- Stereotiplar va ularning salbiy oqibatlari
- O‘zbekistonda gender tenglikka oid huquqiy asoslar
- Ta’limda, oilada va ish joyida tenglikning ahamiyati

4. Sahna ko‘rinishi (8 daqiqa)

Nomlanishi: “Stereotiplar qafasida”

Mazmuni:

Ikki o‘quvchi rollarda chiqadi:

- Birinchisiga “Ayollar faqat uy ishida bo‘ladi” yoki “Erkaklar his-tuyg‘u bildirmasligi kerak” kabi stereotiplar qo‘llanadi.
- Ikkinchi rolda esa tenglik asosida qo‘llab-quvvatlanadigan personaj ko‘rsatiladi.

Xulosa:

Barcha kasblar va vazifalar jinsga bog‘liq emas, har bir inson o‘z qobiliyati, istagi va mehnatiga ko‘ra muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

5. Interfaol o‘yin: “Bu stereotipmi?” (5 daqiqa)

Boshlovchi bir nechta jummalarni o‘qiydi. Ishtirokchilar stereotip bo‘lsa — qizil kartochka, haqiqat bo‘lsa — yashil kartochka ko‘taradi.

Misollar:

- “Qizlar texnik sohada o‘qiy olmaydi”
- “Erkaklar uy ishini qila olmaydi”
- “Har bir kasb har ikki jins uchun ham ochiq”
- “Ayol ham rahbar bo‘la oladi”

6. Munozara: “Tenglikka erishish uchun nimalar qilamiz?” (10 daqiqa)

Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruh quyidagi savolga javob ishlab chiqadi:

- Maktab/o‘quv yurtida gender tenglikni kuchaytirish uchun 3 ta taklif. Keyin guruhlar o‘z fikrlarini taqdim etadi.

7. Yakuniy xulosa (5 daqiqa)**Boshlovchi:**

— Hurmatli ishtirokchilar! Bugungi tadbirmiz orqali bir narsaga amin bo‘ldik: Tenglik — bu faqat qonunlarda emas, ong va madaniyatda bo‘lishi kerak.

Har birimiz oilada, maktabda, ishda va jamiyatda tenglikni qo‘llab-quvvatlasak, farovon kelajakni birgalikda quramiz.

8. Taqdirlash

Ijodiy chiqish qilgan ishtirokchilar rag‘batlantiriladi, umumiy suratga tushiladi.

XULOSA

Gender tenglik — shunchaki shior yoki rasmiy hujjatlarda qayd etilgan band emas. Bu jamiyatning har bir bo‘g‘inida, oila, ta’lim, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida o‘z ifodasini topishi lozim bo‘lgan tamoyildir. Ayol va erkakning teng huquqlari ta’minlangan jamiyatda adolat mustahkam bo‘ladi, inson qadr-qimmatini yuksaladi, eng muhimi – taraqqiyot kafolatlanadi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik tenglik, taraqqiyot va tinchlik, ayollar va qizlar huquqlariga erishish yo'lidagi to'siqdir. Barqaror Taraqqiyot Maqsadlarining asosiy tamoyiliga – hech kimni ortda qoldirmaslik – ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham bermasdan turib, erishib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi qonun (2019-yil)
2. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun (2020yil)
3. "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (2020-yil)
4. Умматова, Э. Гендер тенглиги табиат муҳофазасига боғлиқ(ми)?:[Оиладаги бирламчи муаммо-озиқ-овқат ва сув хавфсизлиги бўлиб, фарзандлар тарбияси, саломатлик иккинчи даражага тушиб қолади. Бу эса келгуси муаммоларга замин яратади.]/Forish tongi.-2025.-7 dekabr
5. Сатторова,Г. Қонун устуворлигини таъминлаш ва давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш устувор мақсадимиз:[Аёл раҳбарлар ижтимоий соҳалардаги муаммоларга,хотин-қизлар ва болалар манфаатларига алоҳида эътибор қаратадилар.]/Г. Сатторова, М.Қурбонов//Jizzax haqiqati/-2024.-23 oktabr
6. Каримов,Р."Матонатли аёл қиссаси"китобининг тақдимот маросими:[Тошкент шаҳридаги Судялар олий мактабида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ҳуқуқшунос Унсун опа Астанова ҳаёт йўли ва фаолиятини акс эттирган "Матонатли аёл қиссаси"номли китобининг тақдимот маросими бўлиб ўтди.]/Р. Каримов//Forish tongi.-2023/-7 oktabr
7. Маъруфова,Г.Хотин-қизлар ва болаларни оилавий зўравонликлардан ҳимоялаш чоралари кучайтирилмоқда:[Хотин-қизлар ва болаларга нисбатан зўравонлик ва тазйиқнинг барча шаклини бартараф этишга етишиш, бу борада жиноят ва маъмурий жавобгарликни кучайтириш.]/Г. Маъруфова//Халқ сўзи.-2024-15 август
8. Шаҳарова,Г.Илмли аёл хор бўлмас:[Гендер тенглик ва аёллар ҳуқуқлари ҳақида ҳар қанчабонг урилмасин Хотин-қизларнинг орзуларига эришишида ҳали ҳам тўсиқлар учраб турубди.]/Г. Шаҳарова//Forish tongi.-2024.-15 iyun

9. Каримов,Р.Хотин-қизлар ҳуқуқлари давлат ҳимоясида:[Аёлларга нисбатан оилавий зўравонлик бутун дунёда, жумладан мамлакатимизда ҳам муҳим ижтимоий муаммолардандир.]/Р. Каримов//Forish tongi.-2024.-11 may

MUNDARIJA

So`z boshi-----	3
Gender tushunchasi, gender tendensiyalari XXI asrning gender tengligiga oidmuammolari-----	3
Mamlakatda gender tengligini rivojlantirish zaruriyati-----	5
Gender tenglik-taraqqiyot kafolati-----	7
Taraqqiyotning ishonchli poydevori-----	8
Glossariy -----	9
Gender tenglik mavzusiga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mavzulari -----	10
Tadbir ssenariysi-----	12
Xulosa-----	14
Foydalanilgan adabiyotlar-----	15